

## O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) bakalavriat  
ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent-2023

## YAP OÝMTB

Evidenz-Nr. 367

21 08 2023

## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil "21" 08 dagi 367-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

1. 602/1967 - Oliy ta'lif shartnichligi va doirachiligi uchun yozilish  
bo'yicha fakultetlarning kasbiy vazirligining qurilishi;
2. 602/1968 - Oliy ta'lif shartnichligi va doirachiligi uchun yozilish  
bo'yicha fakultetlarning kasbiy vazirligining qurilishi;
3. 602/1969 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
4. 602/1970 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
5. 602/1971 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
6. 602/1972 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
7. 602/1973 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
8. 602/1974 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
9. 602/1975 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
10. 602/1976 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
11. 602/1977 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
12. 602/1978 - Kasbiy vazirligining qurilishi;
13. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minotligiga qo'shish; 14  
umumiyotiga qo'shilgan talab;
14. Klassifikatori;
15. 602/1979 - Xalq buyurtmachi (shartnichili) va doirachiligi uchun yozilish  
bo'yicha o'quv fakultetlari, bimlar bo'yicha muddat va kredit;
16. 602/1980 - Xalq buyurtmachi (shartnichili) uchun yozilish  
bo'yicha o'quv fakultetlari, bimlar bo'yicha muddat va kredit;

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

	bet
T/r	
1. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining ob’ektlari.....	4
1.2.3. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining turlari.....	4
1.2.4. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3. Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1. Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	8
Bibliografik ma ’lumotlar .....	9
Kelishuv varag ‘i .....	10

## **1. 60211900–Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruva xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

–ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

–bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

–ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;

–oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

–oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

–kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

–oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriuentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat kasbiy faoliyatining sohalari:**

60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan, ta’lim va san’at sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, san’at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruva organlarida, davlat korxona va tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi xalq ijodiyoti, baxshi va doston ijrochiligiga oid ishlar bilan bog‘liq tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, san’at ta’lim sohasining tegishli yo‘nalishlari bilan bog‘liq kompleks masalalari mazmunini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

–san’at sohasidagi tegishli jarayonlar;

–ijodiy faoliyat jarayonlari;

–mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san’at sohasining axborot va dasturiy ta’minoti;

–xalq ijodiyoti, baxshichilik, doston ijrochiligi va ularning targ‘iboti, ijodiy g‘oyalarini loyihalash va amaliyatga tatbiq qilish jarayonlari;

–pedagogik faoliyat hamda o‘quv-tarbiya jarayoni.

**1.2.3. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- jodiy-ijrochilik;
- professional ta’lim, kasb-hunar, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, mактабдан ташқари та’лим муассасалари hamda musiqa va san’atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

**1.2.4. 60211900 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha baklavrlarning kasbiy vazifalari:**

60211900 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:**

- xalq dostonlarini yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog‘liq ijodiy ishlarni olib borish;
- xalq dostonlarini ijro etish ko‘nikmasi va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;
- ijro etilayotgan xalq dostonlarining mazmuni, shakli va uslubini tushunish, dostonchilik mактабларining ijro usullarini ajrata bilishi va ijroni baholash;
- katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;
- turli xil jamoalarni biriktirgan holda xalq dosonlarining ijrosiga rahbarlik qila olish;
- ijrochilikda nag‘ma va nomalarni o‘z o‘rnida qo‘llash, ijroda badihago‘ylik san’atini namoyish etishi;
- doston ijrosida aktyorlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

**Professional ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, mактабдан ташқари та’lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:**

- professional ta’lim, kasb-hunar, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, mактабдан ташқари та’lim tizimining ixtisoslikka mos ta’lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandard o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullarini ishlab chiqish va o‘tkazish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjalarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;
- mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;
- o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;
- o‘quv-jarayonini, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ijodiy jarayonlarni tashkil etish;
- ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejashtirish;
- doston ijrochilik ko‘nikmalarini amaliyotga tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- xalq dostonlarini to‘plash, yozib olish va qayta ishslash ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda xalq ijodiyoti, doston ijrochiligi, baxshichilik san’atiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

–internet tarmog’ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

–xalq ijodiyoti, doston ijrochiligi, baxshichilik, musiqa san’atiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

–kasbiy faoliyat ob’ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihibalarini o‘rganish;

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

–ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

–tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

–ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish.

## **2. 60211900 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

–davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

–xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;

–axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatda mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

–yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishslash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

–sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lishi.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

–xalq ijodiyoti, o‘zbek baxshichilik san’atining tarixi va nazariy masalalari (muhit, ustoz va shogird munosabatlari, dostonchilik maktablari, an’ana va badihago‘ylik, epik janrlarning genezisi, ularning tizimi, dostonchilikka yozma adabiyotning ta’siri va h.k.)ni bilishi va professional faoliyatida foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

–jahon epik san’ati namunalarini farqlay olish;

–dostonchilik maktablarining o‘ziga xos musiqiy yo‘nalishini bilishi, dostonlarda qo‘llaniladigan nag‘ma va nomalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish, ularni notaga tushirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

–o‘zbek dostonchilik san’atining tarixiy taraqqiyot jarayoni, mahalliy baxshichilik uslublarining shakllanishi, yirik namoyandalari, ustoz ijrochilarining yillar davomida epik janr va shakllarida yaratgan adabiy va musiqiy repertuari, ijrochi namoyandalar ijodiy faoliyatlar, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni, ijodkorlarning ijro uslublarini ajrata olish va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

–baxshichilik san’ati, doston kuylash mahoratini “Ustoz-shogird” an’analari doirasida avlodlarga o‘tkazish, badihago‘ylik qobiliyatini, yodlab olingan an’anaviy misralar, epik klischelar asosida yangilarini to‘qiy olish qudratini, ularni tasvir vaziyatiga qarab turli xil stilistik o‘zgarishlar bilan qo‘llay bilish san’atiga ega bo‘lishi;

–xalq baxshilarining repertuar birligi, ijro va kuylarning o‘ziga xos jihatlari, dostonchilikning asriy an’analari, dostonchilik maktablariga xos poetik yo‘l, uslub, repertuar xarakteri, ijro usullarini

bilan bir-birlaridan farqlay olish;

–xalq dostonlarining versiya va variantlarini to'liq bilishi, doston ijrosida uning mohiyatini olib bera olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

–tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, amalga oshirilayotgan harakatlarni shaxsiy javobgarlikni hisobga olgan holda vakolatlarni taqsimlash;

–xalq ijodiyoti sohasida hamkorlik aloqalari, uchrashuvlar, mahorat darslari, seminarlarni yuqori darajada o'tkazish;

madaniyat va san'at sohasidagi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ishlab chiqish;

–xalq ijodiyoti, baxshichilik yo'nalishida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, doston ijrochilik san'atini radio-televidenie, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib eta olish.

–pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, ta'lim oluvchilar bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

–pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, musiqiy ta'lim va tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, musiqa ta'limida metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, ularni samarali qo'llay olish;

–baxshichilik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijrochilik, ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

–ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy ta'lim vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta olish;

–izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borishi, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya: Baxshi. (xalfa, jirov, oqin ijrochilik yo'nalishlaridan biri ko'rsatiladi.) Baxshichilik va dostonchilik fanlari o'qituvchisi.**

**2.3.2. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlар va kreditlar:**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6300	210
Tanlov fanlar	360	12
Malakaviy amaliyot	390	13
Bitiruv malakaviy ishi	150	5
<b>JAMI:</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>

**2.3.3. 60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
1.01	DIB1823	Doston ijrochiligi (baxshichilik)	690	23	1-8
1.02	DMXO‘1819	Dostonlarning musiqiy xususiyatlarini o‘rganish	570	19	1-8
1.03	DIO‘U1205	Doston ijrochiligini o‘qitish uslubiyati	150	5	6-7
1.04	CHI1818	Cholg‘u ijrochiligi	540	18	1-8
1.05	OYQ1405	Ovozni yo‘lga qo‘yish	150	5	1-4
1.06	DIA1613	Doston ijrochiligi asoslari	390	13	3-8
1.07	JMT 1205	Jahon musiqasi tarixi	150	5	1-2
1.08	O‘MT1409	O‘zbek musiqasi tarixi	270	9	1-4
1.09	SHXMT1205	Sharq xalqlari musiqasi tarixi	150	5	5-6
1.10	XMI1205	Xalq musiqa ijodiyoti	150	5	1-2
1.11	O‘F1512	O‘zbek folklori	360	12	1-5
1.12	JES1307	Jahon epik san’ati	210	7	6-8
1.13	SN1407	Sahna nutqi	210	7	1-4
1.14	SM1410	Sahna mahorati	300	10	5-8
1.15	MN1617	Musiqa nazariyasi	510	17	1-6
1.16	SOL1613	Solfedjio (doston solfedjio)	390	13	1-6
1.17	FNO1405	Fortopiano	150	5	3-6
1.18	TCHO‘1405	Turdosh cholg‘ularni o‘rganish	150	5	3-6
1.19	MPP1205	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	7-8
1.20	KP1105	Kasbiy pedagogika	150	5	8
1.21	ATM2205	Axborot texnologiyalarida musiqani matematik modellashtirish	150	5	7-8
1.22	DNK1204	Dinshunoslik	120	4	3-4
1.23	FFA1204	Falsafa	120	4	7-8
1.24	O‘YT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1-2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	
		<b>Jami</b>	<b>6660</b>	<b>222</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>390</b>	<b>13</b>	<b>2,4,6,8</b>
		<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651, 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

### Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalaviratning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatini baholash va nazorat, mustaqil ta'lif, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlar bloki, oliy ta'lif muassasasi, ta'lif jarayoni, ishlab chiqarish, ijrochi-ijodkorlik, ilmiy tadqiqot jarayoni, doston, baxshi, badihago'y, an'ana, musiqiy repertuar, namoyanda.

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti  
60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lif yo'naliishi bo'yicha  
malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif  
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ ” 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar–O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektor v.v.b E.Shermanov, Respublika baxshichilik san'ati markazi davlat muassasasi direktori U.Norboyev, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori O.Nazarbekov birgalikda Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60211900 – Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lif yo'naliishi.**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-som farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-som, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5131-som, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-som, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019-2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4369-som Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston davlat san'at va  
madaniyat instituti rektor v.v.b**



**E.Shermanov**

**Respublika baxshichilik san'ati  
markazi davlat muassasasi direktori**



**U.Norboyev**


**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek  
milliy musiqa san'ati instituti rektori**



**O.Nazarbekov**

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari  
**ISHLAB CHIQILGAN:**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy  
musiqa san'ati instituti

Rektor  O.A.Nazarbekov

2023 yil « 14 » 08



M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat va turizm vazirligi  
“Ta'lim va ilm fanni rivojlantirish  
boshqarmasi”

Direktor

Sh.U.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti

Rektor,v.v.b

E.O'.Shermanov

2023 yil « 15 » 08

M.O.

O'zbekiston kompozitorlari va  
bastakorlari uyushmasi

Rais

R.A.Abdullayev

2023 yil « 17 » 08

M.O.

Boshqarma boshlig'i

N.K.Kasimov

2023 yil « 15 » 08



O'zbekiston davlat konservatoriysi

Rektor

K.T.Urinbayev

2023 yil « 16 » 08



M.O.

O'zbek milliy maqom san'ati  
markazi

Direktor

S.M.Begmatov

2023 yil « 17 » 08

M.O.

